

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI TASHQI SIYOSATIDA AFG'ONISTON OMILI VA XALQARO XAVFSIZLIK

Xudoyshukurova Dildora

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo davlatlari — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston — tashqi siyosatida Afg'oniston omilining o'rni hamda uning mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, Afg'onistondagi siyosiy beqarorlik, xavfsizlik bilan bog'liq tahdidlar, terrorizm va ekstremizm xavfi, noqonuniy migratsiya hamda narkotik moddalar savdosining kuchayishi kabi omillarning mintaqa davlatlari tashqi siyosiy strategiyalariga ta'siri ochib beriladi. Maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy, transport-logistika va energetika yo'nalishlaridagi hamkorlik tashabbuslari, shuningdek, chegaraviy xavfsizlikni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti hamda Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti doirasidagi hamkorlik mexanizmlarining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Afg'oniston omili, tashqi siyosat, mintaqaviy xavfsizlik, xalqaro xavfsizlik, geosiyosat, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, noqonuniy migratsiya, chegaraviy xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, transport-logistika loyihalari, energetik xavfsizlik, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

Kirish

XXI asrda xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan geosiyosiy o'zgarishlar Markaziy Osiyo mintaqasining strategik ahamiyatini yanada oshirdi. Ayniqsa, Afg'onistonda uzoq yillar davom etib kelayotgan siyosiy beqarorlik, harbiy mojarolar va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar mintaqa davlatlari xavfsizligi hamda tashqi siyosiy ustuvor yo'nalishlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan Afg'oniston omili Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatida muhim strategik masalaga aylangan.

Markaziy Osiyo davlatlari — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston — geografik joylashuvi, tarixiy-madaniy aloqalari hamda iqtisodiy manfaatlari nuqtayi nazaridan Afg'onistondagi vaziyat bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, chegaraviy xavfsizlikni ta'minlash, terrorizm va ekstremizm tahdidlariga qarshi kurashish, noqonuniy migratsiya va narkotrafik oqimlarini jilovlash masalalari mintaqa davlatlarining tashqi siyosiy strategiyalarida alohida o'rin tutadi. Shu bilan

birga, Afg'oniston Markaziy Osiyo uchun transport-kommunikatsiya yo'laklari, energetika loyihalari va savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ko'prik vazifasini bajarishi mumkin. Shu sababli mintqa davlatlari Afg'oniston bilan pragmatik va muvozanatli tashqi siyosat yuritishga intilmoqda. Mazkur maqolada Afg'oniston omilining Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatiga ta'siri hamda uning mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik tizimidagi o'rni tahlil etiladi.

Asosiy qism

O'zbekiston Tolibon bilan ochiq diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ygan birinchi davlatlardan bo'lib, mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni maqsad qilgan. O'zbekiston va Tolibon o'rtasidagi muloqot Tolibonning Afg'onistonni boshqarishda xalqaro tan olinishida muhim rol o'ynamoqda. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari Tolibon bilan muvozanatli siyosat yuritishga, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga harakat qilayotgan bo'lsa-da, xavfsizlik tahdidlarini boshqarishda ham ushbu davlatga diqqatni qaratmog'i lozim. Tolibon hukumatining xalqaro e'tirofi hanuz noaniq bo'lib qolmoqda, biroq Markaziy Osiyo davlatlari pragmatik yondashuv orqali ushbu hukumat bilan muloqotni davom ettirishga harakat qilmoqda. Markaziy Osiyoning xavfsizlik siyosatida tashqi ta'sirlar ham asosiy o'rin egallaydi. Ayniqsa, Rossiyaning Markaziy Osiyoga ta'siri bu borada muhokamaga arzigulik masaladir. Rossiyaning Markaziy Osiyo xavfsizlik tizimiga ta'siri va tahdidlari geosiyosiy, iqtisodiy, harbiy va strategik omillar bilan bog'liq bo'lib, bu mintaqada Rossiyaning muhim o'rni va ta'sir doirasini belgilaydi. Rossiya Markaziy Osiyo davlatlari bilan uzoq tarixiy va siyosiy aloqalarga ega bo'lib, mintaqadagi xavfsizlik masalalarida muhim rol o'ynaydi. Xususan, geosiyosiy ta'sirga to'xtalsak, Markaziy Osiyodagi ba'zi davlatlar, jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotiga (ODKB) a'zo bo'lib, bu tashkilot Rossiya yetakchiligidagi harbiy blok hisoblanadi. ODKB orqali Rossiya mintaqadagi harbiy hamkorlikni nazorat qiladi va o'z ta'sirini saqlab qolishga harakat qiladi. ODKBning asosiy maqsadi harbiy tahdidlarga qarshi mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'lsada, bu tashkilot ko'pincha Rossiyaning geosiyosiy manfaatlariga xizmat qiladi. Ushbu fikrga real isbot sifatida 2022-yilning yanvarida Qozog'istondagi ijtimoiy tartibsizliklarga qarshi tashkilotning harbiy aralashuvini keltirishimiz mumkin. 2022-yilning yanvar oyida Qozog'istonda yoqilg'i narxining oshishi sababli katta miqyosda norozilik namoyishlari boshlandi. Bu namoyishlar tezda keng ko'lamli tartibsizliklarga aylanib, hukumat inshootlari va banklar talon-toroj qilindi, bir nechta shaharlar, xususan, Olmaota shahrida tartibsizliklar kuchaydi. Qozog'iston prezidenti Qosim-Jomart Toqayev norozilik namoyishlarini "bahsli ta'rifda" deb atab, ODKBdan yordam so'radi. Bu tashkilotning Nizomiga muvofiq, tashkilot a'zosi bo'lgan davlat

xavfsizlikka jiddiy tahdid bilan yuzlashsa, boshqa a'zo davlatlar harbiy yordam ko'rsatishi mumkin edi. Rossiya yetakchiligidagi ODKB davlatlari zudlik bilan 2 500 nafar tinchlikparvar kuchlarini Qozog'istonga jo'natdi. Bu kuchlarning asosiy qismini Rossiya harbiylari tashkil etdi. Ular Qozog'istondagi strategik obyektlarni himoya qilish bilan shug'ullandi va hukumatning tartibsizliklarga qarshi choralar ko'rishiga yordam berdi. Afg'oniston omili Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, Afg'onistondagi siyosiy beqarorlik, hokimiyat almashinuvi va ichki ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar mintaqa davlatlari xavfsizlik siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Eng avvalo, chegaraviy hududlarda xavfsizlikni ta'minlash, noqonuniy qurol-yarog' va narkotik moddalar aylanishining oldini olish, terroristik va ekstremistik guruhlar faoliyatiga qarshi kurashish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ayniqsa Tojikiston va O'zbekiston uchun Afg'oniston bilan umumiy chegara mavjudligi sababli xavfsizlik masalalari ustuvor hisoblanadi. Chegaralarni mustahkamlash, harbiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish va tezkor axborot almashinuvi mexanizmlarini yo'lga qo'yish orqali ehtimoliy tahdidlarga qarshi kurashish choralari ko'rilmogda. Shu bilan birga, Turkmaniston ham betaraflik siyosatiga asoslangan holda Afg'oniston bilan qo'shniçilik aloqalarini saqlab qolishga intilmogda. Markaziy Osiyo davlatlari Afg'onistonni nafaqat xavfsizlik tahdidlari manbai, balki iqtisodiy imkoniyatlar hududi sifatida ham ko'rib chiqmogda. Xususan, transport va logistika yo'laklarini rivojlantirish, temir yo'l va energetika loyihalarini amalga oshirish orqali Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish imkoniyati kengayadi. Bu jarayonda Qozog'iston va Qirg'iziston ham mintaqaviy integratsiya va savdo hajmini oshirishdan manfaatdor.

Shuningdek, Afg'oniston masalasi xalqaro tashkilotlar doirasida ham muhokama qilinmogda. Jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida xavfsizlikni mustahkamlash, terrorizmga qarshi kurash va gumanitar yordam ko'rsatish bo'yicha hamkorlik mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Bu esa mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda ko'p tomonlama diplomatiya va o'zaro ishonç muhitini mustahkamlash muhim ekanini ko'rsatadi. Umuman olganda, Afg'oniston omili Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatida xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlar uyg'unligini taqozo etadi. Mintaqa davlatlari pragmatik yondashuv asosida bir tomondan xavfsizlik tahdidlarini kamaytirishga, ikkinchi tomondan esa iqtisodiy hamkorlik va mintaqaviy integratsiyani rivojlantirishga intilmogda.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Afg'oniston omili Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatining muhim va doimiy omillaridan biri hisoblanadi. Mintaqada yuz berayotgan siyosiy va xavfsizlikka oid jarayonlar bevosita O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston va Qirg'iziston milliy manfaatlarini hamda xavfsizlik strategiyalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Afg'onistondagi beqarorlik, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va noqonuniy migratsiya kabi transmilliy tahdidlar kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlikni mustahkamlash, chegaralarni himoya qilish va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu jarayonda ko'p tomonlama diplomatiya va xalqaro institutlar bilan hamkorlik muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, Afg'oniston mintaqasi uchun iqtisodiy va tranzit salohiyatga ega hudud sifatida ham qaralmoqda. Transport-kommunikatsiya loyihalari, savdo-iqtisodiy aloqalar va energetika sohasidagi hamkorlik istiqbollari Markaziy Osiyoning global iqtisodiy makonga integratsiyalashuvini jadallashtirishi mumkin. Umuman olganda, Afg'oniston omili Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatida xavfsizlik va taraqqiyot o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi. Mintaqaviy barqarorlik va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash esa o'zaro ishonch, konstruktiv muloqot va hamkorlikka asoslangan yondashuvni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) hisoboti. 2010-yil. Mart. Vena; 13-b (www.unodc.org) > Afghanistan_opium_survey_2009_web)
2. The Soufan Group "Foreign Fighters in Syria and Irak" 2014-yil. Iyun. Nyu-York; 8-b, 17-b, 24-b (<https://thesoufancenter.org/wp-content/uploads/2017/05/TSG-Foreign-Fighters-in-Syria-Final-with-cover-rebrand-031317.pdf>)
3. ISIS the State of Terror by Berger. 2015-yil. Nyu-York
4. BMT Qochqinlar bo'yicha Oliy Komissarligi (UNHCR), Global Trends, 2021-yil. Jeneva. www.unrefugees.org
5. Reuters 2022-yil. 7-yanvar bayonoti. Reuters 6. The central Asia-Caucasus Institute (CACI) www.cacianalyst.org